

**XORIJIY AMALIYOTDA KICHIK BIZNES UCHUN KREDIT  
MAHSULOTLARI (MIKROKREDITLAR, LIZING, FAKTORING,  
INNOVASION MOLİYALASHTIRISH VOSITALARI).**

*Miraxmedov Davron Abduganiyevich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti, mustaqil izlanuvchisi*

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o'sishning eng muhim drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes sektorining barqaror rivojlanishi moliyaviy resurslarga keng va moslashuvchan kirish imkoniyati bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan taklif etilayotgan mikrokreditlar, lizing, faktoring hamda innovatsion moliyalashtirish vositalari ushbu sektorning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xorijiy tajribada kichik biznesni moliyalashtirishda an'anaviy kreditlash bilan bir qatorda muqobil va innovatsion instrumentlardan keng foydalanilmoqda. Jumladan, mikrokreditlash tizimi kichik tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirish uchun boshlang'ich kapitalga kirishni yengillashtirsa, lizing mexanizmi asosiy vositalarni katta boshlang'ich xarajatlarsiz jalb etish imkonini beradi. Faktoring operatsiyalari esa korxonalar aylanma mablag'larining uzluksizligini ta'minlab, to'lov intizomi va likvidlik muammolarini samarali hal etadi. So'nggi yillarda esa raqamli platformalar asosida faoliyat yurituvchi innovatsion moliyalashtirish vositalari – fintech kreditlash, peer-to-peer lending, supply chain finance kabi mexanizmlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda yangi bosqichni boshlab bermoqda.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda ushbu moliyaviy instrumentlarning samarali ishlashi rivojlangan institutsional muhit, zamonaviy risk-boshqaruv tizimlari, raqamli infratuzilma va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar va diversifikatsiyalashgan kredit mahsulotlari tizimini joriy etish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlikni oshirish va eksportni kengaytirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida esa kichik biznesni moliyalashtirish tizimi faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, xorijiy amaliyotda keng qo'llanilayotgan ayrim moliyaviy instrumentlar, xususan innovatsion moliyalashtirish vositalari, raqamli kreditlash platformalari va zamonaviy faktoring mexanizmlarining to'liq joriy etilmaganligi mazkur sohada qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Shu sababli, xorijiy amaliyotda kichik biznes uchun qo'llanilayotgan kredit mahsulotlarini

o'rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish va milliy bank tizimiga moslashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

AQSh banklari tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish so'nggi besh yil ichida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Quyida 2019-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda kichik biznes kreditlashining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilimiz:

**1-jadval****2019-2024 yillarda AQSh da kichik biznesni kreditlash<sup>1</sup>.**

No	Yillar	Kredit hajmi (mlrd \$)	Yillik o'sish su'ati (%)	Umumiy kredit portfelidagi ulushi (%)
1	2019	700	7,81	20,0
2	2020	750	7,14	21,0
3	2021	800	6,72	22,0
4	2022	820	2,53	21,5
5	2023	850	3,74	21,8
6	2024	880	3,52	22,0

Kredit hajmi yil sayin barqaror o'sib bormoqda. 2019 yilda 700 mlrd \$, 2024 yilda esa 880 mlrd \$ ga yetgan. Yillik o'sish su'ati 2019-2021 yillarda 7% atrofida bo'lgan, ammo 2022 yilda keskin pasayib 2.53% ga tushgan. Keyingi yillarda biroz tiklanib 3.52% ga yetgan. Kreditning umumiy portfeldagi ulushi 20% dan 22% gacha oshgan, bu esa kredit bozorida kichik bizneslarning ulushi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar kreditlash jarayonida sekinlashuv bo'lganini va keyingi yillarda barqarorlashganini ko'rsatadi.

So'nggi 6 yillik tahlil shuni ko'rsatadiki, AQShda kichik biznes kreditlash hajmi doimiy o'sishda, lekin pandemiyadan keyin o'sish sur'atlari pasaygan. Banklar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda, lekin yuqori foiz stavkalari kredit olish jarayoniga ta'sir ko'rsatgan. Davlat dasturlarining (PPP va boshqa grantlar) roli katta bo'lib, ular pandemiya yillarida kichik biznesni moliyalashtirishni jadallashtirgan. 2024-yilda kichik biznes kreditlarining umumiy kredit bozoridagi ulushi 22% ga yetgan, bu esa kichik bizneslarning iqtisodiy barqarorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, fintex kompaniyalari (masalan, OnDeck, Kabbage kabi onlayn kredit platformalari) faol rivojlanib, 2023 yilda kichik bizneslarning qariyb 23% i kredit olish uchun an'anaviy banklar o'rniga onlayn kredit provayderlarga murojaat qilganligi qayd etilgan. AQSh misolida ko'rish mumkinki, davlat ko'magidagi dasturlar (SBA 7(a), 504, Microloan va boshqalar) hamda xususiy moliya bozori ishtirokchilari uyg'unlashgan holda kichik biznesning deyarli barcha segmentlarini moliyalashtirishga intilmoqda. Natijada, mazkur segmentda kredit olish imkoniyati

<sup>1</sup> U.S. Small Business Administration (SBA) veb-saytida "Loan Program Performance" hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

keng va instrumentlarning samaradorligi nisbatan yuqori: masalan, 2022 yilda kichik biznesga jami \$43 mlrd. atrofida kredit va investitsiyalar yo'naltirilib, minglab yangi ish o'rinlari yaratilganligi qayd etildi.

Xulosa o'rnida, xorijiy amaliyotda kichik biznesni moliyalashtirish tizimi diversifikatsiyalashgan bo'lib, unda an'anaviy kreditlar bilan bir qatorda mikrokredit, lizing, faktoring va fintech yechimlari samarali qo'llanilmoqda. AQSh tajribasi kichik biznes kreditlash hajmining barqaror o'sishi va davlat hamda xususiy sektor hamkorligining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Mazkur tajriba asosida O'zbekistonda kredit mahsulotlarini kengaytirish, raqamli moliyalashtirish vositalarini joriy etish hamda innovatsion instrumentlarni rivojlantirish kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. World Bank. Boosting SME Finance for Growth. Finance for Development Report, 2023.
2. IFC. IFC Helps Uzbekistan's Ipoteka-Bank Boost Lending for Smaller Businesses. Press Release, 22.08.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevraldagi PF-2768-son Farmoni. Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida.
4. SBA (USA). Small Business Contribution to GDP and Employment. Annual Report.